



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические аспекты.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalar misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarda rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

MOLIYA TIZIMINING BOSHQA IQTISODIY TIZIMLAR BILAN ALOQADORLIGI

ВЗАИМОСВЯЗЬ ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМЫ С ДРУГИМИ ЭКОНОМИЧЕСКИМИ СИСТЕМАМИ

THE RELATIONSHIP OF THE FINANCIAL SYSTEM WITH OTHER ECONOMIC SYSTEMS

Махмудов Одилжон Холмирзаевич

Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Андижон факултети профессори, иқтисодиёт фанлари доктори.

Annotatsiya

Mazkur maqolada moliya tizimining iqtisodiy tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda moliya tizimi ishlab chiqarish, investitsiya, soliq, bank va tashqi iqtisodiy tizimlar bilan o‘zaro integratsiyada bo‘lishi natijasida iqtisodiy o‘sishning dinamikasi shakllanishi asoslab berilgan. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida moliya tizimining bozor infratuzilmalari, mehnat bozori, narx-navo mexanizmlari va tashqi savdo bilan o‘zaro aloqasi tahlil qilinib, ularning milliy iqtisodiy siyosatdagi o‘rni hamda o‘zaro ta’sir samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: moliya tizimi, iqtisodiy tizim, integratsiya, iqtisodiy o‘sish, moliyaviy barqarorlik, investitsiya, byudjet, iqtisodiy islohotlar.

В данной статье анализируется взаимосвязь финансовой системы с другими экономическими системами, а также их влияние на устойчивость национальной экономики. В исследовании обосновано, что интеграция финансовой системы с производственной, инвестиционной, налоговой, банковской и внешнеэкономической сферами формирует динамику экономического роста. Кроме того, на основе системного подхода рассматривается взаимодействие финансовой системы с рыночной инфраструктурой, рынком труда, ценовыми механизмами и внешней торговлей. В работе предложены научно-практические рекомендации по повышению эффективности этих взаимосвязей в рамках национальной экономической политики.

Ключевые слова: финансовая система, экономическая система, интеграция, экономический рост, финансовая стабильность, инвестиции, бюджет, экономические реформы.

This article analyzes the interconnection between the financial system and other economic systems, as well as their impact on the stability of the national economy. The study substantiates how the integration of the financial system with production, investment, taxation, banking, and external economic sectors shapes the dynamics of economic growth. Furthermore, based on a systemic approach, the interaction of the financial system with market infrastructures, the labor market, pricing mechanisms, and foreign trade is examined. The paper also provides scientific and practical recommendations aimed at enhancing the effectiveness of these interrelations within national economic policy.

Keywords: financial system, economic system, integration, economic growth, financial stability, investment, budget, economic reforms.

Global iqtisodiyotning integratsiyalashuvi va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida moliya tizimi mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligi va o‘sish sur‘atlarini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda moliya tizimi nafaqat byudjet va bank

sektorini, balki ishlab chiqarish, investitsiya, soliq, tashqi savdo va bandlik kabi boshqa iqtisodiy tizimlarning samarali faoliyatini ham bevosita belgilaydi. Shu bois, moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan o‘zaro aloqadorligini tahlil qilish iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF–60-sonli Farmonida iqtisodiyotning barcha sohalarida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, davlat moliyasini optimallashtirish hamda real sektor bilan moliya tizimi o‘rtasidagi integratsiyani chuqurlashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan[1]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Bank tizimini raqamlashtirish va moliyaviy texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–4696-sonli Qarori moliya tizimining ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalar bilan o‘zaro aloqasini mustahkamlashda muhim bosqich bo‘ldi[2]. Bu esa o‘z navbatida milliy iqtisodiyotda moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan uzviy bog‘liqligi resurslarning samarali taqsimlanishini, ishlab chiqarish hajmining o‘shishini hamda aholi farovonligining yuksalishini ta‘minlash uchun muhim mexanizm bo‘ldi. Shu bois, moliya tizimining o‘zaro aloqadorlik mexanizmlarini tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash va takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Moliya tizimi va uning boshqa iqtisodiy tizimlar bilan o‘zaro aloqadorligini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan. Misol uchun, rossiyalik iqtisodchi F. S. Mishkin o‘zining “The Economics of Money, Banking and Financial Markets” asarida moliya tizimini milliy iqtisodiyotning markaziy qon tomiri sifatida talqin etib, uning ishlab chiqarish, investitsiya va bandlik jarayonlariga bevosita ta‘sirini asoslab beradi. Biroq, global iqtisodiyotdagi tashqi omillar — xalqaro kapital bozorlari, valyuta kursi barqarorligi va tashqi savdo jarayonlarining moliya tizimiga ta‘siri ham ko‘plab tadqiqotlarda e‘tibordan chetda qolgan[3].

Shuningdek, xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham moliya tizimi bilan real sektor o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash global iqtisodiy barqarorlik uchun muhim omil ekanligi ta‘kidlanadi. Shu bilan birga, moliya tizimining inson kapitali, bandlik darajasi va ijtimoiy barqarorlikka ta‘siri masalalari ham yetarli o‘rganilmagan[4].

Mahalliy miqyosda o‘rganilgan tadqiqotlarda T. I. Shukurov va M. Malikovning ishlari alohida o‘rin tutadi. Ular O‘zbekiston moliya tizimining iqtisodiyotdagi roli, ishlab chiqarish, investitsiya va soliq tizimlari bilan o‘zaro aloqadorlik mexanizmlarini chuqur tahlil qilganlar. Tadqiqot natijalarida moliya tizimi barqaror faoliyat yuritgan sharoitda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kapital aylanish tezlashishi, investitsiya oqimlarining kengayishi hamda ishlab chiqarish samaradorligining oshishi ilmiy asosda ko‘rsatib o‘tilgan. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarda ayrim jihatlar hali yetarli darajada yoritilmagan. Jumladan, raqamli transformatsiya jarayonlari, fintech texnologiyalari va blokcheyn asosidagi moliyaviy xizmatlarning iqtisodiy tizimlarga ta‘siri chuqur o‘rganilmagan. Shuningdek, institutsional va huquqiy omillarning, jumladan moliya tizimini tartibga soluvchi siyosat va davlat institutlari faoliyatining o‘zaro bog‘liqlikka ta‘siri ham cheklangan miqyosda tahlil qilingan. Ko‘pchilik ishlar nazariy yondashuvga tayanib, empirik yoki statistik tadqiqot metodlaridan yetarlicha foydalanmagan[5,6].

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar moliya tizimi va iqtisodiy tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni nazariy jihatdan keng yoritgan bo‘lsa-da, raqamli iqtisodiyot, institutsional islohotlar va empirik dalillar asosida chuqurroq tahlilni talab etadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu yo‘nalishlarni kengroq qamrab olish, xususan, raqamli moliya infratuzilmasining iqtisodiy tizimlarga integratsiyasini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligini chuqurlashtirish ya‘ni iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, investitsiyalarni rag‘batlantirish va davlat moliyasining barqarorligini ta‘minlash uchun zarur omildir.

Demak avvalo nazariy tushunchalarga to‘xtalib o‘tib ketadigan bo‘lsak, moliya tizimi — bu davlat, korxonalar, tashkilotlar va aholining pul mablag‘larini shakllantirish, taqsimlash hamda

ulardan samarali foydalanishni ta'minlovchi iqtisodiy munosabatlar majmuasidir. Moliya tizimi o'z ichiga davlat byudjeti, soliq tizimi, kredit-moliya muassasalari, sug'urta, investitsiya va fond bozorlari kabi bo'g'nlarni oladi. Ushbu tizim orqali iqtisodiyotda resurslar qayta taqsimlanadi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlari moliyaviy jihatdan ta'minlanadi hamda iqtisodiy barqarorlikka erishiladi.

Iqtisodiy tizim esa jamiyatda ishlab chiqarish vositalarining mulkchilik shakli, xo'jalik yuritish usuli va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish tamoyillariga asoslangan tizimni ifodalaydi. Iqtisodiy tizimlar tarixan to'rtta asosiy turga bo'linadi: an'anaviy, buyruqbozlik (markazlashgan), bozor va aralash iqtisodiy tizim. Bugungi kunda aksariyat mamlakatlar, jumladan O'zbekiston, aralash iqtisodiy tizim modelini qo'llaydi, bunda davlat tartibga soluvchi rolni saqlab qolgan holda, bozor mexanizmlari orqali iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlaydi.

Moliya tizimi iqtisodiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u ishlab chiqarish, investitsiya, soliq, bandlik va tashqi savdo tizimlari bilan o'zaro uzviy aloqada faoliyat yuritadi. Ushbu o'zaro bog'liqlik iqtisodiyotda resurslarning samarali taqsimlanishini, investitsiya oqimlarining oshishini hamda iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi. Xususan, moliya tizimi ishlab chiqarish sektoriga kredit va investitsiyalar ajratish orqali ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi, soliq tizimi orqali esa byudjet daromadlarini shakllantiradi. Tashqi iqtisodiy aloqalar esa moliya tizimi orqali valyuta oqimlari va kapital harakatini boshqarishga imkon yaratadi. Shu jihatdan, moliya tizimi barcha iqtisodiy tizimlarning "asosiy qon tomiri" sifatida namoyon bo'ladi. U ishlab chiqarish jarayonini moliyalashtiradi, iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlaydi, ijtimoiy sohalarini rivojlantirish uchun moliyaviy asos yaratadi va umuman olganda, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda markaziy o'rinni egallaydi.[7]

O'zbekiston iqtisodiyotida moliya tizimi bilan boshqa iqtisodiy tizimlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu tizimlarning integratsiyasi milliy iqtisodiy barqarorlik va o'sishning muhim omilidir. Tadqiqot davomida moliya tizimi, ishlab chiqarish, investitsiya, soliq va bank sektorlaridagi o'zaro ta'sir mexanizmlari, shuningdek, ularning iqtisodiy siyosat bilan uzviy bog'liqligi o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda moliyaviy resurslar taqsimoti va investitsiya oqimlarini muvofiqlashtirish orqali ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada ortgan. Xususan, 2020–2024-yillar oralig'ida sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida kredit hajmlari 1,8 barobarga oshgan, bu esa iqtisodiyotning real sektorida kapital aylanishining tezlashishiga sabab bo'lgan. Bunda, Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan moliyaviy barqarorlik siyosati hamda raqamli to'lov tizimlarini joriy etish choralari muhim rol o'ynagan.

Soliq tizimi bilan moliya tizimi o'rtasidagi uzviy aloqadorlik ham iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlat byudjeti daromadlarining o'sishi, soliq ma'murchiligining raqamlashtirilishi va fiskal siyosatning investitsiya faoliyatiga yo'naltirilganligi moliyaviy oqimlarning samarali boshqarilishini ta'minlamoqda. Masalan, 2023-yilda byudjet tushumlarining 32 foizi investitsion va ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Bank sektori orqali amalga oshirilayotgan moliyaviy vositachilik iqtisodiy tizimlarning o'zaro integratsiyasini yanada kuchaytirgan. Bank kreditlari hajmining ortishi nafaqat investitsiyalarni rag'batlantirmoqda, balki kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga ham turtki bo'lmoqda. Shu bilan birga, Fintech yechimlari, onlayn to'lov tizimlari va raqamli inkasso xizmatlarining joriy etilishi moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, moliya tizimining ishlab chiqarish, investitsiya va soliq tizimlari bilan o'zaro aloqadorligini mustahkamlash iqtisodiy resurslarning qayta taqsimlanishini samaraliroq amalga oshirishga imkon bermoqda. Natijada iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlari ta'minlanmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy tizimning real sektor bilan uzviy integratsiyasi bandlik darajasining oshishiga va aholi daromadlarining barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda. Biroq, tahlillar ayrim cheklavlarni ham ko'rsatdi. Jumladan, moliyaviy infratuzilmaning hududlar bo'yicha notekis rivojlanishi, ayrim tarmoqlarda raqamli moliya texnologiyalaridan foydalanishning past darajasi hamon iqtisodiy tizimlar o'rtasidagi to'liq integratsiyaga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, kelgusida moliya tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish, fintech startaplarni qo'llab-quvvatlash va hududlar

kesimida moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir[8].

1-jadval

Global Moliya Tizimi va Investitsion sohaga integratsiyasi

№	Qit'alar	Yil	Moliya tizimi chuqurligi % GDP	Investitsiya oqimi (FDI – USD mlrd) ²
1	Shimoliy Amerika	2024	74.17%	311 mlrd \$
2	Janubiy Amerika	2023	214.23%	66 mlrd \$
3	Osiyo	2024	95.92%	37 mlrd \$
4	Yevropa	2024	72.40%	167 mlrd \$

Manba: *International Monetary Fund (IMF). Global Financial Stability Report hamda World Bank. World Development Indicators Database, 2024 hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.* [9,10]

1-jadvaldagi ma'lumotlar ko'rsatadiki, 2023–2024-yillar davomida dunyo bo'yicha moliya tizimi chuqurligi va xalqaro investitsiya oqimlari sezilarli darajada o'sib bormoqda. Moliya tizimi chuqurligi — bu mamlakat moliya sektori faoliyatining iqtisodiyotdagi ulushi va kengligini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, odatda bank aktivlari yalpi ichki mahsulotga (GDP) nisbati orqali o'lchanadi. Yuqori ko'rsatkich moliya resurslarining iqtisodiyotga faol jalb qilinishini va investitsiya imkoniyatlarining kengligini bildirsa, past ko'rsatkich moliya sektorining iqtisodiyotdagi roli cheklanganini aks ettiradi.

Masalan, Shimoliy Amerikada moliya tizimi chuqurligi 74,17 % ni tashkil qilsa, Janubiy Amerikada bu ko'rsatkich 214,23 % ga yetgan. Ushbu farq, bir tomondan, qit'alar moliya infratuzilmasi rivojlanishidagi farqlarni, ikkinchi tomondan, Janubiy Amerikadagi bank va moliya aktivlarining GDP ga nisbatan katta foizini aks ettiradi. Raqamli to'lovlar hajmining 2020–2025-yillar davomida 393,2 milliard dollardan 708,5 milliard dollargacha o'sishi, global miqyosda moliyaviy raqamlashtirish jarayonining chuqurlashib borayotganini tasdiqlaydi. An'anaviy to'lov usullarining o'rni elektron, mobil va onlayn to'lov tizimlari bosib olmoqda. Shu bilan birga, raqamli to'lovlar hajmidagi o'sish sur'atlari (yiliga o'rtacha 11–14 %) yangi moliyaviy ekotizimning shakllanayotganini ko'rsatadi.

2021-yildan boshlab jahon bozorida kuzatilayotgan ikki raqamli o'sish sur'atlari bir tomondan pandemiya davrida onlayn xizmatlar va e-commerce platformalarining keng ommalashuvi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan fintech kompaniyalar va raqamli banklarning faol integratsiyasi bilan izohlanadi. Xalqaro moliya oqimlarida raqamli to'lov tizimlarining roli keskin ortib bormoqda. Hozirda ko'plab davlatlar transchegaraviy to'lovlarda blockchain, QR-kod, mobil banking kabi ilg'or texnologiyalarni joriy etmoqda.

Ushbu jarayon moliyaviy operatsiyalarning tezligi, shaffofligi va xavfsizligini oshirish bilan birga, moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi. Ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli to'lov tizimlari aholini bank xizmatlari bilan qamrab olishda muhim rol o'ynamoqda. Shu nuqtai nazardan, jadvaldagi ma'lumotlar moliya tizimi va investitsiya oqimlarining global miqyosda yangi texnologik va institutsional bosqichga o'tayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, moliyaviy texnologiyalar sohasidagi innovatsiyalar ya'ni sun'iy intellekt, big data, bulutli texnologiyalar asosida yaratilayotgan to'lov yechimlari, xalqaro moliya tizimining samaradorligini oshirmoqda. Natijada, raqamli iqtisodiyot sharoitida moliya sektori nafaqat texnologik, balki institutsional va tartibga solish jihatlaridan ham yangilanmoqda, bu esa qit'alar bo'yicha FDI va moliya tizimi chuqurligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston moliya tizimi so'nggi yillarda barqaror rivojlanmoqda va boshqa iqtisodiy tizimlar bilan uzviy bog'lanish darajasini oshirmoqda. 2023–2024-yillarda mamlakat bank aktivlari yalpi ichki mahsulotga (GDP) nisbatan taxminan 50–55 % atrofida bo'lib, bu moliya tizimi chuqurligining o'rta darajada ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekistonga kelayotgan tashqi to'lovlar to'g'ri investitsiya (FDI) oqimi 7–8 mlrd USD atrofida, bu esa iqtisodiyotning investitsiya jozibadorligi va moliyaviy integratsiyasini bildiradi. Jadvaldagi boshqa mamlakatlar bilan

taqqoslaganda, O‘zbekiston moliya tizimi chuqurligi pastroq bo‘lsa-da, raqamli bank xizmatlari, elektron to‘lov tizimlari va fintech yechimlari orqali moliyaviy barqarorlikni oshirishda sezilarli imkoniyatlar mavjud. Raqamli to‘lovlar va bank infratuzilmasining kengayishi, xususan, QR-kod va mobil banking tizimlarining ommalashuvi, mamlakat moliya tizimining samaradorligini yaxshilash bilan birga, aholini moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olishni kengaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston moliya tizimi global standartlar bilan solishtirganda o‘rta darajada rivojlangan bo‘lsa-da, raqamli transformatsiya va investitsiya oqimlarini rag‘batlantirish orqali chuqurligini oshirish va iqtisodiyotdagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlash imkoniyatiga ega[11].

Olib borgan tadqiqotlarim shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston sharoitida moliya tizimi va boshqa iqtisodiy tizimlar o‘rtasidagi aloqadorlikni rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar kuzatilmog‘da:

1. O‘zbekiston moliya tizimi chuqurligi boshqa rivojlangan mamlakatlar bilan solishtirganda o‘rta darajada bo‘lib, bank aktivlari va kreditlash hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan yetarlicha yuqori emas. Bu holat ishlab chiqarish va investitsiya jarayonlarining cheklanishiga olib keladi.

2. Raqamli transformatsiya va fintech xizmatlarining yetarlicha rivojlanmaganidir. Elektron to‘lov tizimlari va raqamli bank xizmatlari hududlarda keng qamrovga ega bo‘lmayapti va ularning iqtisodiy tizimlar bilan uzviy integratsiyasi cheklangan.

3. O‘zbekistonga kelayotgan xalqaro investitsiya oqimlari pastligi moliya tizimi va ishlab chiqarish sektori o‘rtasidagi bog‘liqlikni cheklaydi. Bu muammoni hal etish uchun soliq va investitsiya imtiyozlarini kengaytirish, xorijiy investorlarga barqaror va shaffof moliyaviy siyosatni taqdim etish hamda iqtisodiyotning raqamli va eksportga yo‘naltirilgan sektorlariga FDI jalb qilish zarur.

4. Moliya tizimi va boshqa iqtisodiy tizimlar o‘rtasidagi koordinatsiya yetishmovchiligi bilan bog‘liq. Bank, soliq, tashqi savdo va ishlab chiqarish tizimlari o‘rtasidagi ma‘lumot almashinuvi va integratsiya yetarli darajada emas.

5. Moliyaviy inkluziya pastligi aholini bank xizmatlaridan cheklangan foydalanishga olib keladi, bu esa investitsiya va moliya resurslarining samarali taqsimlanishiga to‘sqinlik qiladi[12].

Umuman olganda, yuqoridagi muammolarni bartaraf etish va moliya tizimi bilan boshqa iqtisodiy tizimlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlash orqali O‘zbekiston moliya sektori iqtisodiyotning barcha sohalarida samarali faoliyat yuritishi va barqaror o‘sish sur‘atlarini ta‘minlashi mumkin.

Yuqoridagi keltirilgan bir qator muammolarga xulosa sifatida quyidagi yechimlarni taklif qilishga harakat qildim:

1. Bank infratuzilmasini kengaytirish, moliya institutlarini rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarni, xususan kichik va o‘rta bizneslar uchun kredit imkoniyatlarini oshirish hamda raqamli bank xizmatlarini ommalashtirish va fintech yechimlarini tatbiq etish zarur.

2. Mobil banking va QR-kod to‘lovlarni keng joriy etish, blokcheyn asosida xalqaro va ichki to‘lov tizimlarini modernizatsiya qilish, shuningdek moliyaviy texnologiyalarni tatbiq etishda xususiy sektor bilan davlat hamkorligini kuchaytirish muhimdir.

3. Soliq va investitsiya imtiyozlarini kengaytirish, xorijiy investorlarga barqaror va shaffof moliyaviy siyosatni taqdim etish hamda iqtisodiyotning raqamli va eksportga yo‘naltirilgan sektorlariga FDI jalb qilish zarur.

4. Milliy moliya platformalarini yagona tizimga birlashtirish, ma‘lumot almashish va monitoringni avtomatlashtirish, shuningdek iqtisodiy tizimlar o‘rtasida koordinatsiya bo‘yicha davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarur.

5. Raqamli moliya va mobil banking xizmatlarini keng joriy etish, aholini moliyaviy savodxonlikka o‘rgatish hamda kichik va o‘rta tadbirkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini yaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF–60-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Bank tizimini raqamlashtirish va moliyaviy texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4696-sonli Qarori.
3. Mishkin, F. S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. — New York: Pearson Education, 2019. — 720 p.
4. Шукуров Т. И. Роль финансовой системы в обеспечении экономического роста Республики Узбекистан // Экономика и образование. — 2021. — №2. — С. 45–52.
5. Маликов М. М. Влияние финансовых институтов на инвестиционную активность в Узбекистане // Журнал экономических исследований. — 2020. — №4. — С. 33–41.
6. International Monetary Fund (IMF). Global Financial Stability Report. — Washington, D.C.: IMF Publications, 2023. <https://www.imf.org>
7. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Financial Markets and the Real Economy. — Paris: OECD Publishing, 2022. <https://www.oecd.org>
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida hisobot – 2024. — Toshkent: Markaziy bank nashriyoti, 2024. — 68.b
9. International Monetary Fund (IMF). Global Financial Stability Report – 2024. — Washington, D.C.: IMF Publications, 2024. <https://www.imf.org>
10. World Bank. World Development Indicators Database – 2024. — Washington, D.C.: The World Bank Group, 2024: <https://databank.worldbank.org>
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar to‘plami – 2024. — Toshkent: Davlat statistika qo‘mitasi, 2024.
12. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijalari. Toshkent-2024.95b. <https://api.mf.uz/Budjetnoma-2025>

UDK: 334.7

**“YASHIL IQTISODIYOT” VA “YASHIL TADBIRKORLIK” TUSHUNCHALARINING
IQTISODIY MAZMUNI VA EVOLYUSION TRANSFORMASIYASI**

**ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ И ЭВОЛЮЦИОННАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ
ПОНЯТИЙ «ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА» И «ЗЕЛЁНОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО»**

**THE ECONOMIC ESSENCE AND EVOLUTIONARY TRANSFORMATION OF THE
CONCEPTS OF “GREEN ECONOMY” AND “GREEN ENTREPRENEURSHIP”**

Ibragimova Ma’mura Muxiddinovna

University of Business and Science “Yashil iqtisodiyot” kafedrası dotsenti,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoiti, yashil iqtisodiyotni shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, yashil tadbirkorlik manbalarining zamonaviy iqtisodiyotdagi o‘rni va ularning barqaror rivojlanishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston Respublikasi sharoitida kichik biznes va yashil tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hamda ushbu yo‘nalishda investitsion va texnologik imkoniyatlarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, yashil moliya, iqtisodiy samaradorlik, hududiy rivojlanish, innovatsiya.

В данной статье проводится научный анализ условий перехода к зеленой экономике, этапов формирования и развития зеленой экономики, роли ресурсов зеленого предпринимательства в современной экономике и их значения для устойчивого развития.